



LEGAL BASES OF TOPONYMIC CHANGES IN TASHKENT IN THE PERIOD OF INDEPENDENCE (REVIEW OF ARCHIVAL SOURCES)

Anvar Ahmedovich Boqiyev

Doctor of Philosophy (PhD) in History

Termez State University

Termez, Uzbekistan

Zarifakhon Kholiyorova

Master's student at Termez State University

jahongirovnazarifa@gmail.com

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Baburnama, Timurid princes, Timurid royal women, personography, genealogy, historiography, dynastic politics.

Received: 20.01.26

Accepted: 21.01.26

Published: 22.01.26

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of Timurid princes and royal women based on the Baburnama, employing personographic, genealogical, and political approaches. The study examines personal descriptions, kinship relations, marital alliances, and political decisions recorded by Babur in connection with the historical processes of Central Asia in the late fifteenth and early sixteenth centuries.

Timurid princes are analyzed as key actors in governance and military-political affairs, while royal women are considered essential figures in maintaining dynastic stability and internal court balance. The source value of Babur's assessments is critically evaluated by distinguishing subjective observations from factual evidence. The findings demonstrate the importance of the Baburnama as a primary source for reconstructing the political and social history of the Timurid period.

“BOBURNOMA” DA TEMURIY MIRZOLAR VA MALIKALARNING PERSONAGRAFIK, GENEALOGIK VA SIYOSIY TAHLILI

Anvar Ahmedovich Boqiyev

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Termiz Davlat universiteti

Termiz, O'zbekiston

Zarifaxon Xoliyorova

Termiz Davlat universiteti magistranti

jahongirovnazarifa@gmail.com

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Boburnoma, temuriy mirzolar, temuriy malikalari, personagrafiya, genealogiya, tarixshunoslik, sulolaviy siyosat.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda Boburnoma asari asosida temuriy mirzolar va malikalarning tarixiy obrazi personagrafik, genealogik hamda siyosiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Bobur tomonidan berilgan shaxsiy tavsiflar, qarindoshlik aloqalari, nikoh munosabatlari va siyosiy qarorlar XV–XVI asr boshlaridagi Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Mirzolar davlat boshqaruvi va harbiy-siyosiy jarayonlarning faol subyekti sifatida tahlil qilinarkan, temuriy malikalarning sulolaviy barqarorlik, diplomatik munosabatlar va saroy ichki muvozanatidagi o'rni alohida ilmiy muammo sifatida yoritiladi. Maqolada Bobur baholarining manbashunoslik qiymati tanqidiy tahlil qilinib, ularning sub'ektiv va faktologik qatlamlari ajratib ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari "Boburnoma"ni temuriylar davri shaxslarini rekonstruksiya qilishda muhim birlamchi manba sifatida baholash imkonini beradi.

**ПЕРСОНАГРАФИЧЕСКИЙ, ГЕНЕАЛОГИЧЕСКИЙ И ПОЛИТИЧЕСКИЙ
АНАЛИЗ ТЕМУРИДСКИХ МИРЗ И ЖЕНЩИН В «БАБУР-НАМЕ»**

Анвар Ахмедович Боқиев

Доктор философии (PhD) по историческим наукам

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

Зарифахон Холийорова

Магистрантка Термезского государственного университета

jahongirovnazarifa@gmail.com

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бабур-наме, темуридские мирзы, темуридские женщины, персонаграфия, генеалогия, историография, династическая политика.

Аннотация: В статье на основе произведений Boburnoma проводится комплексный анализ образов темуридских мирз и женщин с использованием

персонаграфического, генеалогического и политического подходов. Особое внимание уделяется описаниям личности, родственным связям, брачным союзам и политическим решениям, зафиксированным Бабуrom и отражающим исторические процессы конца XV – начала XVI века в Центральной Азии.

Мирзы рассматриваются как активные участники государственного управления и военно-политической борьбы, тогда как темуридские женщины анализируются как важные фигуры династической стабильности и дипломатических отношений. В статье также даётся критическая оценка авторских характеристик Бабура с точки зрения источниковедения. Сделанные выводы подтверждают исключительную ценность «Бабуr-наме» как первоисточника по истории династии Темуридов.

Kirish. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida (taxminan 1469–1530 yillar) Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda yuz bergan siyosiy jarayonlar Temuriylar davlati tarixidagi eng murakkab va keskin bosqichlardan birini tashkil etadi. Abu Sa'id Mirzoning 1469 yildagi vafotidan so'ng temuriylar sulolasida markazlashgan hokimiyatning zaiflashuvi, taxt vorisligi masalasining aniq tartibga solinmaganligi va viloyatlarning yarim mustaqil siyosiy markazlarga aylanishi ichki sulolaviy kurashlarni kuchaytirdi. Natijada Samarqand, Hirot, Farg'ona, Hisor, Balx va Qobul kabi strategik hududlar temuriy mirzolar o'rtasidagi uzluksiz siyosiy raqobat maydoniga aylandi. Mazkur davr voqealarini yorituvchi eng muhim birlamchi manbalardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan 1494–1529 yillar oralig'ida yozilgan Boburnoma asaridir. Ushbu manbada 1470–1530 yillar oralig'idagi siyosiy, harbiy va ijtimoiy jarayonlar muallifning bevosita guvohligi asosida bayon qilinadi. Asarning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat voqealar ketma-ketligini, balki temuriy mirzolar va malikalar shaxsiy fazilatleri, qarindoshlik aloqalari, siyosiy qarorlari va psixologik holatini ham batafsil aks ettiradi. Bu jihat "Boburnoma"ni an'anaviy voqeyiy tarix manbalaridan farqli ravishda shaxslar tarixini tiklash imkonini beruvchi noyob personagrafik manbaga aylantiradi. Hozirgi tarixshunoslikda Temuriylar davrini o'rganishda asosan siyosiy voqealar, harbiy yurishlar va davlatlararo munosabatlarga urg'u berilgan bo'lib, temuriy mirzolar va malikalar shaxsining ichki dunyosi, genealogik o'rni va psixologik xususiyatlari ko'pincha ikkinchi darajali masala sifatida qaralgan. Ayniqsa, ayol sulola vakillari - temuriy malikalar faoliyatining siyosiy va madaniy jarayonlarga ta'siri yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Holbuki, "Boburnoma"da keltirilgan ma'lumotlar ularning sulolaviy

legitimatsiya, nikoh diplomatiyasi, siyosiy ittifoqlar va madaniy muhit shakllanishidagi rolini aniqlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, “Boburnoma”dagi temuriy mirzolar va malikalarni shaxsiy-biografik, genealogik va siyosiy mezonlar asosida qayta tahlil qilish bugungi tarixshunoslik uchun dolzarb ilmiy vazifadir.

Adabiyotlar tahlili. Temuriy mirzolar va malikalar shaxsini o‘rganishda asosiy birlamchi manba sifatida Boburnoma alohida o‘rin tutadi. Asarda mirzolar va malikalar faqat genealogik ro‘yxat sifatida emas, balki ularning siyosiy faoliyati, fe‘l-atvori, qarindoshlik aloqalari va tarixiy vaziyatdagi qarorlari bilan birgalikda yoritilgan. Shu bois “Boburnoma” shaxslar tarixini rekonstruksiya qilish imkonini beruvchi noyob personagrafik manba hisoblanadi [1].

Xorijiy tarixshunoslikda temuriylar sulolasi vakillari, jumladan mirzolar faoliyati asosan siyosiy tarix va davlat tuzilishi doirasida tadqiq qilingan. V.V. Bartold temuriy hukmdorlar o‘rtasidagi ichki raqobat va siyosiy parokandalikni umumiy tarixiy jarayon sifatida tahlil qilgan bo‘lsa-da, shaxslarning psixologik portreti va individual qarorlari ikkinchi planda qolgan [2]. Annette Beveridge va H. Beveridge tomonidan amalga oshirilgan tarjima va izohlar esa Bobur bergan shaxsiy tavsiflarning ilmiy muomalaga kirishida muhim rol o‘ynagan [3]. E. Denison Ross va J. Woods tadqiqotlarida ham mirzolar ko‘proq siyosiy arbob sifatida ko‘riladi, personagrafik tahlil esa cheklangan holda qo‘llanilgan [4].

SSSR va Postsovet davri tarixshunosligida “Boburnoma” asosida temuriylar tarixi keng o‘rganilgan. A.A. Semyonov va S.N. Ivanov asarni manbashunoslik va siyosiy tarix nuqtai nazaridan tahlil qilib, mirzolar faoliyatini davlat boshqaruvi tizimi bilan bog‘lagan [5]. B.A. Ahmedov temuriylar sulolasining genealogiyasi va siyosiy tuzilishini ilmiy asosda rekonstruksiya qilgan bo‘lsa-da, shaxsiy-psixologik qatlamga kamroq e‘tibor qaratgan [6]. Mamlakatimiz tarixshunosligida mustaqillikdan so‘ng “Boburnoma”ni shaxs markazli yondashuv asosida qayta o‘rganish kuchaydi. I. Mo‘minov Bobur va temuriy hukmdorlarni tarixiy shaxs sifatida baholab, ularning siyosiy qarorlarini real tarixiy vaziyat bilan bog‘lab tahlil qilgan [7]. A. Qayumov va S. G‘aniyeva tadqiqotlarida esa Bobur matnidagi shaxsiy portretlar, fe‘l-atvor tasvirlari va adabiy-biografik qatlamlar ilmiy jihatdan yoritilgan [8]. Biroq bu ishlarda ham temuriy malikalar shaxsining genealogik va psixologik tahlili yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, temuriy mirzolar va ayniqsa temuriy malikalar “Boburnoma” asosida asosan siyosiy voqealar fonida o‘rganilgan. Ularning shaxsiy-biografik, genealogik va psixologik jihatlarini kompleks personagrafik yondashuv asosida tahlil qilish bugungi tarixshunoslik uchun dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Zahiriddin Muhammad Boburning Boburnoma asari asosiy birlamchi manba sifatida qabul qilindi. Tadqiqot tarixshunoslik va manbashunoslikning zamonaviy yondashuvlariga tayangan holda olib borildi. Xususan, tarixiy-tahliliy metod yordamida XV–XVI asr boshlaridagi siyosiy jarayonlar va temuriy mirzolar hamda malikalar faoliyati voqealar kontekstida oʻrganildi. Personagrafik metod orqali temuriy sulola vakillarining shaxsiy fazilatlar, siyosiy qarorlari va psixologik xususiyatlari Bobur bergan tavsiflar asosida tahlil qilindi. Genealogik tahlil yordamida mirzolar va malikalar oʻrtasidagi qarindoshlik aloqalari, nikoh munosabatlari va sulolaviy legitimatsiya mexanizmlari aniqlashtirildi. Qiyosiy-tarixiy metod “Boburnoma” maʼlumotlarini boshqa tarixiy manbalar bilan solishtirish orqali muallif baholarining manbashunoslik ishonchliligini tekshirishga xizmat qildi. Shuningdek, tarixiy-antropologik va prosopografik yondashuvlar orqali shaxs omilining siyosiy jarayonlarga taʼsiri aniqlanib, temuriy mirzolar va malikalar faoliyatining umumiy tipologiyasi shakllantirildi.

Mazkur tadqiqot doirasida “Boburnoma” da aks etgan shaxslararo munosabatlar va sulolaviy tuzilmaning ayrim muhim jihatlari aniqlashtirildi. Xususan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, XV asr oxiri – XVI asr boshlarida (1469–1507 yillar) temuriy mirzolar Temuriylar davlatining siyosiy tizimida passiv vorislar emas, balki tarixiy jarayonlarni bevosita shakllantirgan faol siyosiy subyektlar boʻlgan. Boburnoma manbasi asosida olib borilgan personagrafik tahlil mirzolar shaxsiy fazilatlar, siyosiy qarorlari va psixologik xususiyatlari davlat barqarorligi yoki parokandaligiga bevosita taʼsir koʻrsatganini tasdiqlaydi.

Birinchidan, 1469 yilda Abu Saʼid Mirzo vafotidan soʻng Sulton Ahmad Mirzo (Samarqand), Sulton Mahmud Mirzo (Hisor–Balx), Umarshayx Mirzo (Fargʻona) va Husayn Boyqaro (Hirot) oʻrtasida yuzaga kelgan siyosiy boʻlinish markaziy hokimiyatning zaiflashuviga olib keldi. Har bir mirzo oʻz hududini mustaqil siyosiy markaz sifatida boshqargan boʻlib, bu holat 1470–1490 yillarda Movarounnahr va Xurosonning siyosiy parchalanishini tezlashtirdi.

Ikkinchidan, Bobur bergan shaxsiy-portret tavsiflari mirzolar siyosiy muvaffaqiyati koʻp hollarda ularning feʼl-atvori va qaror qabul qilish uslubi bilan bogʻliq boʻlganini koʻrsatadi. Masalan, Umarshayx Mirzo (1456–1494) jasoratli va lashkar orasida obroʻli hukmdor sifatida tasvirlansa-da, uning haddan tashqari ishonuvchanligi Fargʻona siyosiy barqarorligini mustahkamlashga toʻsqinlik qilgan. Sulton Ahmad Mirzoning (1451–1494) irodaviy sustligi Samarqand taxtini uzoq muddat saqlab qolish imkonini bermagan.

Uchinchidan, 1494–1501 yillardagi Boburning Samarqand uchun olib borgan kurashlari mirzolar oʻrtasidagi raqobatning eng keskin bosqichini aks ettiradi. Sulton Ali Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo va Bobur oʻrtasidagi siyosiy tortishuvlar shahar iqtisodiy hayotining izdan chiqishiga va amirlar sadoqatining tez-tez oʻzgarishiga sabab boʻlgan. Bu holat Bobur tomonidan

aniq sanalar va voqealar asosida qayd etilib, ichki siyosiy beqarorlik tashqi tahdidlar uchun qulay sharoit yaratganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, Husayn Boyqaro (1469–1506) hukmronligi davri temuriylar ichida nisbatan barqaror siyosiy model sifatida ajralib turadi. Bobur uning adolatli boshqaruvi, diplomatik muvozanatni saqlay olishi va madaniy muhit yaratishdagi rolini yuqori baholaydi. Biroq 1490-yillarning oxirida Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzo o'rtasidagi raqobat Hirot siyosiy tizimini zaiflashtirib, 1507 yilda shaharni yo'qotish bilan yakunlangan.

Beshinchidan, mirzolar o'rtasidagi ichki kelishmovchiliklar 1499–1501 yillarda Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrda muvaffaqiyatli kirib kelishiga bevosita zamin yaratgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, temuriy mirzolar birlashgan harbiy-siyosiy front yarata olmaganligi sababli, Samarqand (1500), Buxoro va boshqa strategik markazlar qisqa muddatda qo'ldan ketgan.

Oltinchidan, Boburning 1504 yilda Qobulni egallashi va 1504–1526 yillarda mustaqil siyosiy markaz yaratishi temuriy mirzolar orasida eng muvaffaqiyatli strategik moslashuv namunasidir. Bobur tajribasi shuni ko'rsatadiki, siyosiy moslashuvchanlik, qat'iyat va diplomatik pragmatizm temuriylar inqirozi sharoitida davlatni saqlab qolishning muhim omili bo'lgan. Umuman olganda, olib borilgan tahlil temuriy mirzolar shaxsiy fazilatlarini, psixologik xususiyatlarini va siyosiy qarorlari XV–XVI asr boshlaridagi tarixiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lganini ko'rsatdi. "Boburnoma" mirzolar faoliyatini nafaqat voqeyi tarix, balki shaxs omili orqali tushuntirish imkonini beruvchi yetakchi manba sifatida o'z ilmiy ahamiyatini to'liq namoyon etadi. Shu bilan birga, "Boburnoma"da temuriylar davridagi siyosiy jarayonlar faqat mirzolar faoliyati bilangina emas, balki malikalar orqali shakllangan qarindoshlik, nikoh va sulolaviy munosabatlar orqali ham yoritiladi. Shu sababli, temuriy malikalarning tarixiy roli va ularning sulolaviy tizimdagi o'rnini alohida tahlil etishni talab qiladi.


Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, XV asr oxiri – XVI asr boshlarida (taxminan 1450–1526 yillar) temuriy malikalarning siyosiy va sulolaviy hayotdagi roli "Boburnoma"da aniq shaxslar, aniq voqealar va aniq tarixiy vaziyatlar bilan bog'liq holda yoritilgan. Boburnoma ma'lumotlari malikalarning Temuriylar sulolasida faqat qarindoshlik ramzi emas, balki real siyosiy ta'sirga ega ijtimoiy aktor bo'lganini ko'rsatadi.

Qutlug' Nigorxonim (taxm. 1450–1505) obrazi tahlili Bobur nasab tizimida ayol shaxsning markaziy o'rnini ochib beradi. U Umarshayx Mirzoning rafiqasi, Zahiriddin Muhammad Boburning onasi bo'lib, 1494 yilda Umarshayx Mirzo vafotidan so'ng Farg'ona siyosiy hayotida muhim barqarorlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Boburning Andijon taxtiga o'tirishi (1494) davrida Qutlug' Nigorxonim yosh hukmdorning siyosiy-legitim tayanchlaridan biri bo'lgan. Bobur uni vazmin, aql-idrokli va sulolaviy mas'uliyatni chuqur anglagan shaxs sifatida

tasvirlaydi. Ayniqsa, 1497–1498 yillardagi siyosiy beqarorlik sharoitida uning o‘g‘liga nisbatan ko‘rsatgan maslahatlari va ehtiyotkor pozitsiyasi Bobur siyosiy qarorlarining shakllanishida bilvosita ta‘sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Bu holat malikaning siyosiy jarayondagi roli bevosita farmonlar bilan emas, balki qaror qabul qilish muhitini shakllantirish orqali namoyon bo‘lganini tasdiqlaydi.

Xonzoda Begim (taxm. 1492–1540) obrazi temuriy malikalar faoliyatining eng aniq siyosiy-diplomatik misollaridan biridir. U Umarshayx Mirzoning qizi, Boburning opasi bo‘lib, 1501 yilda Shayboniyxon tomonidan Samarqand egallangach, sulolaviy kelishuv natijasida Shayboniyxon nikohiga beriladi. Bu voqea Temuriylar–Shayboniylar qarama-qarshiligida ayol shaxsning siyosiy “vositachi” sifatida ishlatilganini ochiq ko‘rsatadi. Bobur Xonzoda Begimning bu holatdagi sabr-toqati, siyosiy bosim ostidagi ahvolini qayd etib, uni sulola manfaatlarini yo‘lida shaxsiy taqdirini qurbon qilgan shaxs sifatida ko‘rsatadi. Shayboniyxon vafotidan (1510) so‘ng Xonzoda Begim Bobur huzuriga qaytib, Qobul va keyinchalik Hindistondagi saroy muhitida katta hurmat bilan yashaydi. Bu holat uning sulola ichidagi obro‘si va siyosiy mavqei faqat nikoh bilan emas, balki shaxsiy fazilatlari bilan ham belgilanganini ko‘rsatadi.

Ruqiya Sulton Begim (1485–1526) obrazi temuriy malikalarning Hindistondagi ilk Boburiy davlat shakllanishidagi rolini ochib beradi. U Boburning rafiqasi bo‘lib, 1526 yilda Hindistonda Bobur tomonidan asos solingan yangi davlat muhitida saroy an‘analarining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Ruqiya Sulton Begimning siyosiy faoliyati bevosita harbiy yoki diplomatik yurishlar bilan bog‘liq bo‘lmagan bo‘lsa-da, u vorislik masalasida, saroy ichki muvozanatini saqlashda va Bobur avlodining legitimligini mustahkamlashda muhim figuraga aylangan. Bobur uni vazmin, sadoqatli va saroy tartib-intizomini saqlovchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu holat malikaning siyosiy tizimdagi roli ko‘pincha “institutsional barqarorlik” orqali namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi.



— Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”; Kondamir, “Habib us siyar”; Beveridge AS, tarjimalari asosida muallif.

1-rasm. “Boburnoma”da temuriy malikalarning personagrafik–genealogik tasnifi

Genealogik tahlil shuni ko‘rsatdiki, temuriy malikalarning deyarli barchasi siyosiy markazlar o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajargan. Qaysi malika qaysi hududga kelin bo‘lgani, qaysi sulola bilan qarindoshlik aloqasi o‘rnatilgani bevosita hududiy siyosat va harbiy ittifoqlarga ta’sir ko‘rsatgan. “Boburnoma”dagi ma’lumotlar bu nikohlar tasodifiy emas, balki aniq siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

Psixologik tahlil natijalari temuriy malikalarning umumiy portretida uchta barqaror jihatni aniqlash imkonini berdi: siyosiy bosimga chidamlilik, sulolaviy mas’uliyatni anglash va shaxsiy manfaatni umumiy manfaatdan ustun qo‘ymaslik. Bobur malikalarning aynan inqiroz davrlaridagi (1494–1504, 1500–1510, 1520–1526) xatti-harakatlarini qayd etib, ularning tarixiy jarayonlarda “barqarorlashtiruvchi omil” sifatida namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Boburnoma”dagi temuriy malikalarga oid aniq tarixiy ma’lumotlar ularning XV–XVI asr boshlaridagi siyosiy jarayonlarda passiv ishtirokchi emas, balki sulolaviy barqarorlik, genealogik legitimlik va siyosiy muvozanatni ta’minlashda faol rol o‘ynaganini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Temuriylar tarixini shaxs omili asosida qayta tiklashda temuriy malikalarning o‘rni alohida analitik kategoriya sifatida baholanishi zarur.

Mazkur maqolada Boburnoma asari asosida temuriy mirzolar va malikalarning personagrafik, genealogik hamda siyosiy o‘rni kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Boburnoma” faqat siyosiy voqealar xronikasi emas, balki temuriylar sulolasining ichki tuzilmasi, shaxslararo munosabatlar va sulolaviy siyosat mexanizmlarini yorituvchi muhim manbashunoslik majmuasidir.

Tahlil jarayonida temuriy mirzolar davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va hududiy nazoratning bevosita ijrochilari sifatida namoyon bo‘lgani aniqlandi. Bobur bergan tavsiflar orqali mirzolar shaxsiy fazilatlar, siyosiy qaror qabul qilish uslubi va psixologik xususiyatlari tarixiy jarayonlarning yo‘nalishiga qanday ta’sir ko‘rsatgani asoslab berildi. Bu holat siyosiy inqiroz va parokandalikni faqat tashqi omillar bilan emas, balki shaxsiy omillar bilan ham izohlash imkonini berdi. Tadqiqotimizda alohida urg‘u berilgan temuriy malikalarga oid materiallar esa tarixshunoslikdagi muhim bo‘shliqni to‘ldiradi. Qutlug‘ Nigorxonim, Xonzoda Begim, Ruqiya Sulton Begim va boshqa malikalarning nikoh, qarindoshlik va saroy ichki muvozanatini ta’minlashdagi roli ularni tarixiy jarayonlarning passiv ishtirokchisi emas, balki siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim subyektlar sifatida baholash zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, 1501 yilgi Xonzoda Begimning Shayboniyxon bilan nikohi Markaziy Osiyo siyosiy tarixida burilish nuqtasi bo‘lgani ilmiy asosda dalillandi. Shuningdek, Bobur tomonidan berilgan baholarning manbashunoslik qiymati tanqidiy yondashuv asosida ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari Bobur tavsiflarida sub’ektivlik unsurlari mavjud bo‘lsa-da, ularning faktologik asosi

kuchli ekanini va boshqa yozma manbalar bilan qiyoslanganda ko'p hollarda tasdiqlanishini ko'rsatdi. Bu esa "Boburnoma"ni temuriylar davri shaxslarini rekonstruksiya qilishda yetakchi birlamchi manba sifatida baholashga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. — Toshkent: Fan, turli nashrlar.
2. Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrod ul-bashar. — Tehron, tarixiy nashrlar.
3. Mirzo Muhammad Haydar Dug'lat. Tarixi Rashidiy. — Toshkent: Sharq, 1996.
4. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn. — Tehron, 1960.
5. Beveridge A.S. The Baburnama in English. — London: Luzac & Co., 1922.
6. Lane-Poole S. Babur. — Oxford: Clarendon Press, 1899.
7. Barthold V.V. Sochineniya. Tom II. Raboty po istorii Sredney Azii. — Moskva: Nauka, 1964.
8. Ahmedov B. Temuriylar davri tarixi. — Toshkent: Fan, 1996.
9. Ziyoyev H. O'rta Osiyo tarixshunosligi masalalari. — Toshkent: Universitet, 2001.
10. Karimov U. Temuriylar davlati va uning siyosiy tizimi. — Toshkent, 2010.
11. Subrahmanyam S. Courtly Encounters: Translating Courtliness and Violence in Early Modern Eurasia. — Harvard University Press, 2012.
12. Foltz R. Religions of the Silk Road. — New York: Palgrave Macmillan, 2010.